

KASBIY STANDART

Qurilishda bo'yoqchilar

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Ko'chma bo'yoq stansiyasi mashinisti", "Qurilish bo'yoqchisi", "Emal bo'yoqlari va nitrolaklar bilan ishlovchi bo'yoqchi", "Bezaklarga ishlov beruvchi bo'yoqchi" va "Bo'yoqchi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb kartasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi – mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta'lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

Ishchi (ekspert) guruhi – bu kasbiy standartni ishlab chiqish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida ishtirok etuvchi, sohaviy bilim va tajribaga ega mutaxassislardan tashkil topgan guruh.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston

Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2).

Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT- Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi

SHHV - shaxsiy himoya vositalari

LOYIHA

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Qurilishda bo'yoqchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Bino va inshootlarning tashqi va ichki yuzalariga bo'yoq ishlarini me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	F bo'lim - Qurilish 43 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 43.3 Pardoqlash qurilish ishlari 43.34 Bo'yoqchilik va oyna solish ishlari 43.34.0 Bo'yoqchilik va oyna solish ishlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Qurilishda bo'yoqchilar kasbiy standarti - qurilishda bo'yoq ishlarida qo'llaniladigan asbob-uskuna va qurilmalardan foydalanish, bo'yoq ishlarini bajarish tartibi, bo'yoq turlari to'g'ri ishlatish va bezaklarni bo'yash ishlarini bajarish bo'yicha talablarni o'z ichiga oladi	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71310001 - Bezaklarga ishlov beruvchi bo'yoqchi	2
		71310004 - Bo'yoqchi	2
		71310 - Emal bo'yoqlari va nitrolaklar bilan ishlovchi bo'yoqchi	3
		71310 - Ko'chma bo'yoq stansiyasi mashinisti	3
		71310 - Qurilish bo'yoqchisi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71310001 - Bezaklarga ishlov beruvchi bo'yoqchi	A1.2	Ish o'rnini tashkil qilish	A1.01.2	Bo'yoqchilarni ish o'rnini tashkil qilish, yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash
				A1.02.2	Ish o'rnida mehnat muxofazasi va xavfsizlik talablariga amal qilish
				A1.03.2	Bezaklarni bo'yashda ishlatiladigan materiallarning sifatini tekshirish va qabul qilish
		A2.2	Bezaklarni bo'yash ishlarini bajarish	A2.01.2	Bezak yuzasini bo'yashga tayyorlash
				A2.02.2	Dekorativ bo'yoqlarni tayyorlash
				A2.03.2	Oddiy va murakkab bo'yash ishlarini bajarish
2	71310004- Bo'yoqchi	B1.2	Ish o'rnini tashkil qilish	B1.01.2	Yo'riqnomadan o'tish va vazifalarni belgilash
				B1.02.2	Mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligi talablariga amal qilish
				B1.03.2	Bo'yash uchun ishlatiladigan materiallarning sifatini tekshirish va qabul qilish
		B2.2	Yuzalarni bo'yashga tayyorlash va silliqdash	B2.01.2	Yuzalarni bo'yashga tayyorlash
				B2.02.2	Yuzalarni gruntovka qilish va silliqdash
		B3.2	Bo'yash ishlarini bajarish va sifatini nazorat qilish	B3.01.2	Bo'yash ishlarini bajarish
				B3.02.2	Bo'yash ishlari sifatini nazorat qilish
3	71310- Emal bo'yoqlari va nitrolaklar bilan ishlovchi bo'yoqchi	D1.3	Materiallarning sifatini tekshirish va qabul qilish	D1.01.3	Emal bo'yoqlari va nitrolakning sifatini tekshirish
				D1.02.3	Emal bo'yoqlari va nitrolakni qabul qilish
		D2.3	Emal bo'yoqlari va nitrolak bilan yuzalarni bo'yash va sifatini tekshirish	D2.01.3	Bo'yaladigan yuzalarga ishlov berish
				D2.02.3	Emal bo'yoqlari va nitrolak bilan yuzalarni bo'yash
				D2.03.3	Yuzalar sifatini tekshirish
4	71310- Ko'chma bo'yoq stansiyasi mashinisti	E1.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasini ishga tayyorlash	E1.01.3	Ish o'rnini mehnat muhofazasi talablariga muvofiqlashtirish
				E1.02.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasi uchun bo'yoq tayyorlash
				E1.03.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasini ishga tayyorlash
		E2.3		E2.01.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasi qismlarini tekshirish va uni salt ishlatish

			Ko'chma bo'yoq stansiyasini samarali ishlatish	E2.02.3	Bo'yash ishlarini xavfsizlik talablariga muvofiq bajarish
				E2.03.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasini ishini yakunlash
		E3.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasiga texnik xizmat ko'rsatish	E3.01.3	Ko'chma bo'yoq stansiyasini ko'zdan kechirish
				E3.02.3	Nosozliklarni bartaraf etish
		F1.3	Bo'yoqchilik ishlari uchun materiallarni tanlash, qabul qilish va yuzalarni tayyorlash	F1.01.3	Bo'yoqchilik ishlari uchun materiallarni tanlash va qabul qilish
				F1.02.3	Bo'yash uchun yuzalarni tayyorlash
5	71310-Qurilish bo'yoqchisi	F2.3	Yuzalarda bo'yash ishlarini bajarish	F2.01.3	Yuzalarni gruntovka qilish
				F2.02.3	Yuzaga shpatlevka qilish va silliqdash
				F2.03.3	Bo'yash ishlarini bajarish va sifatini tekshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Bezaklarga ishlov beruvchi bo'yoqchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71310	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Bezaklarni bo'yash bo'yicha 6 oydan kam bo'lmagan tajriba talab etiladi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	18 yoshga to'lgan shaxslar ishlashga ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish. Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi. Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qishda qatnashish va bilimlarini sinovdan o'tkazish, yo'riqnomadan o'tish, ish joyida malaka oshirish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish. Xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Texnik ekspluatatsiya qoidalari talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish. Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-	A1.01.3-	O'qitish natijalari

Ish o'rnini tashkil qilish	Bo'yoqchilarni ish o'rnini tashkil qilish, yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash	Mehnat harakatlari: 1. Ish joyini xavfsiz va tartibli holatda tashkil qilish. 2. Bo'yoqchilarga texnika xavfsizligi bo'yicha dastlabki yo'riqnomadan o'tish. 3. Vazifalarni aniq taqsimlash va har bir bo'yoqchining ish hajmini belgilash. 4. Ish boshlanishidan oldin uskunalarni tekshirish va tayyor holga keltirish. 5. Bo'yoq jarayonlari uchun zarur asbob-uskunalar, himoya vositalari va materiallarni joylashtirish. 6. Ish jarayonini nazorat qilish va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish. Ko'nikmalar: Ish o'rnini tashkil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish Yo'riqnomadan o'tish ko'nikmasiga ega bo'lish Vazifalarini belgilash ko'nikmasiga ega bo'lish Muammolarni tez aniqlash va mustaqil hal etish ko'nikmasi. Ish jarayonida yuzaga keladigan xavflarni oldindan baholash. Ish o'rnini samarali tashkil qilish va vaqtni to'g'ri rejalash ko'nikmasi. Bilimlar: Ish o'rnini tashkil qilishga qo'yiladigan talablar. Yo'riqnomadan o'tish tartibi va unga qo'yiladigan talablar. Vazifalarini belgilash tartibi va unga qo'yiladigan talablar. Asbob-uskunalar (purkagich, kompressor, valik, cho'tka, shpatel va boshqalar)dan xavfsiz foydalanish qoidalari. Rang materiallari, gruntlar va qoplama vositalarining xossalari. Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlar. Bo'yoqchilikka oid texnik xavfsizlik va mehnat muhofazasi talablari.
	A1.02.3- Ish o'rnida mexnat muxofazasi va xavfsizlik talablariga amal qilish	Mehnat harakatlari: 1. Ish o'rnida xavfsizlik talablarini bajarish. 2. Ish o'rnida mexnat muxofazasi talablarini bajarish. 3. Ish o'rnida sanitariya talablarini bajarish. 4. Ish o'rnida yong'in xavfsizligi talablarini bajarish. Ko'nikmalar: Ish o'rnida xavfsizlik talablariga rioya qilish Ish o'rnida mexnat muxofazasi talablariga rioya qilish Ish o'rnida sanitariya talablariga rioya qilish Ish o'rnida yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish Bilimlar:

		Texnika xavfsizligi talablari
		Mexnat muxofazasi talablari
		Yong'in xavfsizligi talablari
		Sanitariya talablari
	A1.03.3-Bezaklarni bo'yashda ishlatiladigan materiallarning sifatini tekshirish va qabul qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Bezak materiallarining yuzalarini o'rganish
		2. Bezaklarni bo'yash uchun materiallarni tanlash
		3. Bo'yoqning turlarini tahlil qilish
		4. Bezak yuzalari uchun bo'yoq tanlash
		5. Bo'yoqlarning sifatini tekshirish
		6. Bezaklar uchun bo'yoqlarni qabul qilish
		Ko'nikmalar:
		Bo'yaladigan bezaklarni taxlil qilish
		Yuzalarga ishlov berish uchun materiallarni tanlash
		Bo'yash uchun asbob-uskunalarini tanlash
		Bo'yoqchilik ishlari uchun materiallarni tanlash
		Bezaklarni bo'yash uchun ishlatiladigan bo'yoq sifatini aniqlash
		Bo'yoqchilik ishlari uchun materiallarni qabul qilish
		Bilimlar:
		Bezaklarning turlari
		Bo'yoqlarning turlari
		Bo'yoqlarning xossalari
		Bo'yoqchilik ishlarida ishlatiladigan asbob-uskunalaridan foydalanish tartibi
		Bezaklarni uchun bo'yoqlarni tanlash tartibi
		Bezaklarni uchun bo'yoqlarni qabul qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ish joyini toza, tartibli va xavfsiz holga keltirish uchun shaxsiy javobgarlikni olish.
		2. Bezak ishlari uchun zarur bo'lgan bo'yoq, asbob-uskunalar va materiallarni mustaqil tanlab joylashtirish.
		3. Asbob-uskunalarini ishga yaroqli holatda saqlash va nosozliklarni mustaqil aniqlash.
A2.3-Bezaklarni bo'yash ishlarini bajarish	A2.01.3-Bezak yuzasini bo'yashga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ishlov beriladigan yuzalarning xususiyatlarini o'rganish
		2. Yuzalarni tozalash
		3. Yuzalarga ishlov berish
		4. Yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish
		5. Bezak eskizlarini o'rganish
		6. Bezak eskizini chizish
		Ko'nikmalar:
		Ishlov beriladigan yuzalarning xususiyatlarini tahlil qilish
		Bo'yaladigan yuzalarni tozalash
		Bo'yaladigan yuzalarga ishlov berish

		Bo'yaladigan yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish
		Bezak eskizlarini tahlil qilish
		Oddiy va murakkab bezak eskizlarini chizish
		Bilimlar:
		Ishlov beriladigan yuzalarning xususiyatlarini aniqlash
		Yuzalarni tozalash usullari
		Yuzalarga ishlov berish tartibi
		Yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish usullari
		Oddiy va murakkab bezaklarning eskizlari
		Oddiy va murakkab bezak eskizini chizish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Bezak uchun ishlatiladigan bo'yoq ranglarini o'rganish
		2. Dekorativ bo'yoq tarkibidagi komponentlar miqdorini aniqlash
		3. Bo'yoq komponentlarini aralashtirish
		4. Dekorativ bo'yoq sifatini aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Bezak uchun ishlatiladigan bo'yoq ranglarini tahlil qilish
		Dekorativ bo'yoq tarkibini tahlil qilish va komponentlar miqdorini aniqlash
		Dekorativ bo'yoq komponentlarini aralashtirish
		Dekorativ bo'yoqlarning sifatini tahlil qilish
		Bilimlar:
		Bezak uchun ishlatiladigan bo'yoq ranglarining turlari va xossalari
		Dekorativ bo'yoq tarkibini tahlil qilish tartibi
		Bo'yoq komponentlarini aralashtirish tartibi
		Dekorativ bo'yoq sifatini aniqlash usullari
		Mehnat harakatlari:
		1. Oddiy bezaklar uchun ranglarni tanlash ishlari
		2. Oddiy bezaklarni bo'yash ishlarini bajarish
		3. Murakkab bezaklar uchun ranglarni tanlash ishlari
		4. Murakkab bezaklarni bo'yash ishlarini bajarish
		5. Oddiy va murakkab bezaklarni bo'yash ishlarining sifatini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Oddiy bezaklar uchun ranglarni tanlash
		Oddiy bezaklarni bo'yash
		Murakkab bezaklar uchun ranglarni tanlash
		Murakkab bezaklarni bo'yash
		Oddiy va murakkab bezaklarni bo'yash ishlarining sifatini aniqlash
		Bilimlar:
		Oddiy bezaklarni bo'yash usullari

		Oddiy bezaklarning turlari va ishlatilishi
		Murakkab bezaklarni bo'yash usullari
		Murakkab bezaklarning turlari va ishlatilishi
		Oddiy va murakkab bezaklarni bo'yash ishlarining sifatiga qo'yiladigan talablar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ish joyida mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilish, o'zini va hamkasblarini ehtiyot qilish. 2. Balandlikda ishlashda tushishdan saqlovchi vositalar (belbog', tor) talab qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Bo'yoqchi bezakli bo'yash, dekorativ qoplama va pardozlash materiallarining turlari hamda ularning texnik xususiyatlarini bilishi. Sirtlarni bezak ishlari uchun tayyorlash (tekislash, shpaklyovkalash, silliqlash, gruntlash) jarayonlarini to'g'ri bajarishi. Turli dekorativ texnikalarni (marmor, yog'och, metall, ipak va boshqa effektlarni yaratish) qo'llay olishi. Ranglarni uyg'unlashtirish va aralashtirish qoidalarini bilishi, bo'yoq aralashmalarini me'yorida tayyorlab, ularni cho'tka, valik, shpatel yoki purkagich yordamida teng surtish texnologiyasiga rioya qilishi/ Bezak ishlari uchun zarur asbob-uskunalarni tanlashi va sozlashi, yoritish, harorat hamda namlik sharoitlariga qarab ishni tashkil eta olishi/ Xavfsizlik va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishi. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi.

Kasbning nomi:	Bo'yoqchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71310	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Bo'yash bo'yicha 6 oydan kam bo'lmagan tajriba talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish. Ish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi. Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha malaka oshirish va bilimlarini sinovdan o'tkazish, ish joyida mustaqil ishlash uchun ruxsat olish. Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlardan so'ng elektr, pnevmatik ish qurollari hamda jihozlari ishlatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish va elektr, pnevmatik ish qurollari hamda jihozlari bilan ishlashga ruxsat olish. Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish qoidalariga rioya qilish. Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) umumiy o'rta ta'lim 2) tayanch o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Bo'yash yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli kasbiy kurslar yoki malaka oshirish kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	

B1.2- Ish o'rnini tashkil qilish	B1.01.2- Yo'riqnomadan o'tish va vazifalarni belgilash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish o'rnini sharoitlarini o'rganish
		2. Yo'riqnomadan o'tish
		3. Ish jarayonidagi vazifalarni belgilash
		Ko'nikmalar:
		Ish o'rnini sharoitlarini tahlil qilish
		Yo'riqnomadan o'tish ko'nikmasiga ega bo'lish
		Ish jarayonidagi vazifalarni belgilay olish
		Bilimlar:
		Bo'yoqchining ish o'rniga qo'yiladigan talablar
		Xavfsiz ish o'rnini yaratishga qo'yiladigan talablar
		Ish o'rnini sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari
		Bo'yoq ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar
		Yo'riqnomadan o'tish tartibi
		Ish jarayonidagi vazifalarni belgilash tartibi
	B1.02.2- Mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligi talablariga amal qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Xavfsiz ish o'rnini sharoitlarini o'rganish
		2. Ish o'rnida mexnat muxofazasi talablarini bajarish
		3. Ish o'rnida sanitariya talablarini bajarish
		4. Ish o'rnida texnika xavfsizligi talablarini bajarish
		5. Ish o'rnida elektr xavfsizligi talablarini bajarish
		6. Ish o'rnida yong'in xavfsizligi talablarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Xavfsiz ish o'rnini sharoitlarini tahlil qilish
		Ish o'rnida mexnat muxofazasi talablariga rioya qilish
		Ish o'rnida sanitariya talablariga rioya qilish
		Ish o'rnida texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Ish o'rnida elektr xavfsizligi talablarini bajarish
		Ish o'rnida yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Xavfsiz ish o'rnini sharoitlarini yaratish tartibi
		Ish o'rniga qo'yiladigan mexnat muxofazasi talablari
		Ish o'rniga qo'yiladigan sanitariya talablari
		Ish o'rniga qo'yiladigan texnika xavfsizligi talablari
		Ish o'rniga qo'yiladigan elektr xavfsizligi talablari
		Ish o'rniga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari
	B1.03.2-	Mehnat harakatlari:

	Bo'yash uchun ishlatiladigan materiallarning sifatini tekshirish va qabul qilish	1. Bo'yaladigan materiallarning yuzalarini o'rganish 2. Yuzalarni bo'yashga tayyorlash uchun materiallar tanlash 3. Bo'yoqning turlarini tahlil qilish 4. Bo'yaladigan yuzalari uchun bo'yoq tanlash 5. Bo'yoqlarning sifatini tekshirish 6. Bo'yash uchun materiallarni qabul qilish Ko'nikmalar: Bo'yaladigan materiallarning yuzalarini tahlil qilish Bo'yoqchilikda tayyorgarlik ishlari uchun materiallar tanlash Bo'yoqning ishlatilishi bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish Bo'yoqlarni tanlay olish Bo'yoqlarning sifatini aniqlay olish Bo'yash uchun materiallarni qabul qila olish ko'nikmasiga ega bo'lish Bilimlar: Bo'yaladigan yuzalarning xususiyatlarini aniqlash tartibi Yuzalarni bo'yashda ishlatiladigan materiallarning turlari va xossalari Bo'yoqlarning tarkibi, turlari va xossalari Bo'yoqlarning ishlatilishi Bo'yoqlarning sifat ko'rsatkichlari Bo'yash uchun materiallarni qabul qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Ish joyini toza, xavfsiz va tartibli holga keltirish uchun mas'ul bo'lish. 2. Zarur bo'yoqlar, grunt, shpatlyovka va asbob-uskunalarini mustaqil tanlab joylashtirish. 3. Xavfsizlik qoidalariga amal qilib, ishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish. 4. Bo'yoqlash jarayoniga mos sharoit yaratish: yorug'lik, shamollatish, material saqlash tartibi. 5. Asbob-uskunalarining sozligini tekshirib, nosozliklarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish.
B2.2- Yuzalarni bo'yashga tayyorlash va silliqlash	B2.01.2- Yuzalarni bo'yashga tayyorlash	Mehnat harakatlari: 1. Bo'yaladigan material yuzalarining xususiyatlarini o'rganish 2. Yuzalarni chang va boshqa moddalardan tozalash 3. Yuzalarni tekislash ishlarini bajarish 4. Yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish choralarini ko'rish Ko'nikmalar:

		Bo'yaladigan material yuzalarining xususiyatlarini tahlil qilish
		Bo'yaladigan yuzalarni tozalash
		Bo'yaladigan yuzalarni tekislash
		Bo'yaladigan yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish
		Bilimlar:
		Bo'yaladigan materiallarning tuzilishi
		Bo'yaladigan materiallarning xossalari
		Bo'yaladigan yuzalarni chang va boshqa moddalardan tozalash tartibi
		Yuzalarni tekislash usullari
		Yuzalardagi nuqsonlarni aniqlash tartibi
		Yuzalardagi nuqsonlarni bartaraf qilish tartibi
	B2.02.2- Yuzalarni gruntovka qilish va silliqdash	Mehnat harakatlari:
		1. Gruntovka va qum qog'oz tanlash
		2. Gruntovkani tayyorlash
		3. Yuzalarga gruntovka qilish uchun ishlov berish
		4. Gruntovka ishlarini bajarish
		5. Gruntovka qatlamini quritish
		6. Yuzalarda silliqdash ishlarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Yuzalarga ishlov berish uchun materiallarni tanlay olish
		Gruntovkani tayyorlay olish
		Yuzalarga ishlov berish
		Yuzalarni gruntovka qilish
		Gruntovka qatlamining xususiyatlarini aniqlash
		Yuzalarni silliqdash
		Bilimlar:
		Bo'yaladigan yuzalarga ishlov berish uchun ishlatiladigan materiallarning turlari
		Gruntovkani tayyorlash usullari
		Yuzalarga ishlov berish tartibi
		Yuzalarni gruntovka qilish usullari
		Gruntovkalarining xususiyatlarini aniqlash tartibi
		Yuzalarni silliqdash tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Sirtning holatini mustaqil tekshirish, yoriq, dog', namlik va notekisliklarni aniqlash.
		2. Chang, yog' va eski qoplamalarni tozalashda mas'uliyat bilan ishlash.
		3. Silliqdash ishlarini me'yoriga muvofiq bajarish, changni kamaytirish choralarini ko'rish.

		4. Zararli chang va kimyoviy moddalar bilan ishlaganda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.
		5. Tayyorlangan yuzaning sifatini qayta ko'zdan kechirish va kamchiliklarni mustaqil bartaraf etish.
B3.2- Bo'yash ishlarini bajarish va sifatini nazorat qilish	B3.01.2- Bo'yash ishlarini bajarish	6. Ish jarayonida vaqtni, asbob-uskunalarni va materiallarni to'g'ri boshqarish.
		Mehnat harakatlari:
		1. Bo'yaladigan yuzalarning chetiga skotch yopishtirish
		2. Bo'yoqni tayyorlash
		3. Bo'yash uchun valik va cho'tkalarni tanlash
		4. Asosiy bo'yoq qatlamini berish
		5. Yakuniy bo'yoq qatlamini berish
		6. Bo'yalgan yuzalarning chetidagi skotchni olib tashlash
		Ko'nikmalar:
		Bo'yaladigan yuzalarning chetini himoyalash
		Turli bo'yoqlarni tayyorlash
		Bo'yash uchun valikni ishlatish
		Bo'yash uchun cho'tkani ishlatish
		Valik va cho'tkalar yordamida bo'yash
		Bo'yash ishlarini yakunlash
	B3.02.2- Bo'yash ishlari sifatini nazorat qilish	Bilimlar:
		Bo'yash ishlariga tayyorgarlik ko'rish tartibi
		Bo'yoqlarni tayyorlash usullari
		Bo'yash uchun valikni ishlatish tartibi
		Bo'yash uchun cho'tkani ishlatish tartibi
		Bo'yash usullari
		Yakuniy pardoqlash ishlarini bajarish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Bo'yalgan yuzalarning xossalarini o'rganish
		2. Bo'yash ishlarining loyihaga mosligini tekshirish
		3. Bo'yalgan yuzalarning sifat ko'rsatkichlarini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Bo'yalgan yuzalarning xossalarini tahlil qilish
		Bo'yash ishlarining loyihaga mosligini aniqlash
		Bo'yalgan yuzalarning sifatini aniqlash
		Bilimlar:
		Bo'yaladigan materialarning tuzilishi
		Bo'yaladigan materialarning xossalari
		Bo'yaladigan materialarning turlari
		Bo'yalgan yuzalarning sifatini aniqlash tartibi

	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Ish joyida mehnat muhofazasi qoidalariga qat’iy rioya qilish, o’zini va hamkasblarini ehtiyot qilish. 2. Balandlikda ishlashda tushishdan saqllovchi vositalar (belbogʻ, tor) talab qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Boʻyoqchi ishlatiladigan boʻyoq, grunt, shpaklyovka, lak va emal materiallarining turlari hamda ularning texnik xususiyatlarini bilishi. Sirtlarni boʻyashga tayyorlash (tozalash, tekislash, shpaklyovkalash, silliqlash, gruntlash) ishlarini bajarishi. Boʻyoq aralashmalarini meʼyorida tayyorlab, ularni choʻtka, valik yoki purkagich yordamida teng surtish texnologiyasiga amal qilishi. Boʻyoqlash jarayonida qatlam qalinligi, quritish vaqti, harorat hamda namlik sharoitlariga rioya qilishi. Ishlatiladigan asbob-uskunalarni toʻgʻri tanlashi va sozlashi, xavfsizlik hamda yongʻin xavfsizligi qoidalariga amal qilishi. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi va tayyor qoplamalarning sifatini tekshira olishi kerak.

Kasbning nomi:	Emal bo'yoqlari va nitrolaklar bilan ishlovchi bo'yoqchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71310	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Emal bo'yoqlari va nitrolaklar bilan ishlash bo'yicha 6 oydan kam bo'lmagan tajriba talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish. Ish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi. Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha malaka oshirish va bilimlarini sinovdan o'tkazish, ish joyida mustaqil ishlash uchun ruxsat olish. Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish. Tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlardan so'ng elektr, pnevmatik ish qurollari hamda jihozlari ishlatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish va elektr, pnevmatik ish qurollari hamda jihozlari bilan ishlashga ruxsat olish. Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish qoidalariga rioya qilish. Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
